

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI  
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

*60410500 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriat  
ta'lim yo'nalishining*

**MALAKA TALABI**

Toshkent-2024



**ISHLAB CHIQLIGAN VA KIRITILGAN:**

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

**TASDIQLANGAN VA AMALGA KIRITILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining  
2024-yil “25” iyun dagi 218 – sonli buyrug‘i bilan.

**JORIY ETILGAN:**

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi.

Mazkur Malaka talablari “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Asosiy qoidalar”, “Oliy ta’limning davlat ta’lim standarti. Oliy ta’lim yo’nalishlari va mutaxassisliklari klassifikatori”, O‘zbekiston Respublikasi Milliy va tarmoq malaka doiralari (ramkasi), kasbiy standartlar va kadrlar buyurtmachilari takliflariga muvofiq ishlab chiqilgan va rasmiy me’yoriy-uslubiy hujjat hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasi hududida Malaka talablarini rasmiy chop etish huquqi O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligiga tegishlidir.

## MUNDARIJA

<b>T/r</b>		<b>bet</b>
<b>1.</b>	<b>Umumiy tavsifi.....</b>	<b>4</b>
1.1.	Qo'llanish sohasi .....	4
1.1.1.	Malaka talabining qo'llanilishi.....	4
1.1.2.	Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari .....	4
1.2.	Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.....	4
1.2.1.	Kasbiy faoliyatining sohalari.....	4
1.2.2.	Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.....	5
1.2.3.	Kasbiy faoliyatlarining turlari .....	5
1.2.4.	Kasbiy vazifalari.....	5
<b>2.</b>	<b>Kasbiy kompetensiyalariga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>8</b>
<b>3.</b>	<b>Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar .....</b>	<b>10</b>
<b>4.</b>	<b>Fanlar katalogining tuzilishi .....</b>	<b>11</b>
	<b>Bibliografik ma'lumotlar .....</b>	<b>12</b>
	<b>Kelishuv varag'i.....</b>	<b>13</b>

## **1. Umumiy tavsifi**

60410500 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlash kunduzgi, sirtqi, kechki va masofaviy ta’lim shakllarida amalga oshiriladi. Kunduzgi ta’limda bakalavriat dasturining me’yoriy muddati 4 yil.

### **1.1. Qo’llanish sohasi**

#### **1.1.1. Malaka talabining qo’llanilishi.**

Malaka talablari 60410500 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta’lim yo’nalishi bo’yicha bakalavrlar tayyorlovchi barcha oliy ta’lim muassasalari uchun talablar majmuini ifodalaydi.

#### **1.1.2. Malaka talablarining asosiy foydalanuvchilari:**

Mazkur ta’lim yo’nalishi bo’yicha malaka talablari, o’quv reja va o’quv dasturlarini ishlab chiqish va yangilash, ular asosida o’quv jarayonini samarali tashkil etish uchun mas’ul hamda o’z vakolat doirasida bitiruvchilarning tayyorgarlik darajasiga javob beradigan oliy ta’lim muassasalarining boshqaruv xodimlari (rektor, prorektorlar, o’quv bo’limi boshlig’i, dekanlar) va professor-o’qituvchilari;

ta’lim yo’nalishining o’quv rejasi va o’quv dasturlarini o’zlashtiruvchi oliy ta’lim muassasasining talabalari;

bakalavriat bitiruvchilarining tayyorgarlik darajasini baholashni amalga oshiruvchi Davlat attestatsiya komissiyalari;

ta’limni boshqarish bo’yicha vakolatli davlat organlari;

oliy ta’lim muassasalarini moliyalashtirishni ta’minlovchi organlar;

oliy ta’lim tizimini akkreditatsiyadan o’tkazuvchi va sifatini nazorat qiluvchi vakolatli davlat organlari;

kadrlar buyurtmachilari va ish beruvchi tashkilot hamda korxonalar;

oliy ta’lim muassasalariga o’qishga kirayotgan abituriyentlar, ularning ota-onalari va boshqa manfaatdor shaxslar.

### **1.2. Kasbiy faoliyatlarining tavsifi.**

#### **1.2.1. Kasbiy faoliyatining sohalari.**

Davlat moliyasi, korporativ moliya, uy xo’jaligi moliyasi, davlat budjeti, mahalliy boshqaruv organlari moliyasi, ijtimoiy ta’minot, budjetdan moliyalashtirish, g’aznachilik, davlat xaridlari, davlat maqsadli jamg’armalari, moliyaviy rejalashtirish, moliyaviy nazorat, moliya bozoridagi operatsiyalar, moliyaviy risklarni boshqarish, moliya-sanoat guruhlar va transmilliy korporatsiyalar faoliyat mexanizmi, qimmatli qog’ozlar bozorida faoliyatni tashkil etish, o’zaro hisob-kitoblarni tashkil etish, korporativ tuzilmalar moliyaviy resurslarini boshqarish, moliyaviy vositachilar moliyaviy faoliyatini boshqarish, moliyaviy texnologiyalar asoslari, xalqaro moliya, sug’urta faoliyati, baholash ishi,

investitsiya loyihalariga xizmat ko'rsatish va moliyalashtirish bilan bog'liq kompleks masalalar bilan bog'liq kasbiy faoliyat sohalari majmuasini qamrab oladi.

### **1.2.2. Kasbiy faoliyatlarining obyektlari.**

O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi hamda uning tarkibiy va hududiy bo'linmalari, davlat moliyaviy resurslarini boshqarish faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, moliyaviy faoliyat bilan shug'ullanuvchi va nazorat qiluvchi davlat va nodavlat tashkilotlari, budjet tashkilotlari, budjetdan mablag' oluvchilar, davlat maqsadli jamg'armalari, investitsiya faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilot, muassasalar, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Soliq qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari, O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi huzuridagi Bojxona qo'mitasi va uning hududiy bo'limlari, O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki va tijorat banklari, jismoniy va yuridik shaxslarga xizmatlar ko'rsatuvchi nobank tashkilotlar, pul muomalasi, kassa, hisob-kitob faoliyati bilan shug'ullanuvchi tashkilotlar, davlat korxonalari, baholovchi tashkilotlari, moliyaviy texnologiyalar bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar, sug'urta kompaniyalari, elektron to'lov tizimlari, elektron tijorat subyektlari, lizing kompaniyalari, fond birjasi va birjadan tashqari bozorlar, investitsiya fondlari va kompaniyalari, depozitariylar, investitsion vositachilik xizmatlari ko'rsatuvchi kompaniyalar, valyuta birjasi, tovar-xom ashyo birjasi, moliya-sanoat guruhlari, qo'shma korxonalar, xalqaro moliya tashkilotlari, transmilliy korporatsiyalar, aksiyadorlik jamiyatlari, savdo tashkilotlari, reyting agentliklari, moliyaviy nazoratni amalga oshiruvchi organlar va tashkilotlar, moliya bozorini tartibga soluvchi davlat organlari, moliyaviy maslahat bilan shug'ullanuvchi firmalar hamda boshqa moliyaviy-iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanuvchi korxonalar, tashkilot va muassasalar.

60410500 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar bakalavriat ta'lim yo'nalishi bo'yicha bitiruvchilar pedagogik qayta tayyorlashdan o'tgan taqdirda, professional ta'lim muassasalarida ta'limning vakolatli boshqaruv organlari tomonidan aniqlanadigan umumkasbiy va ixtisoslik fanlarini o'qitish bo'yicha pedagogik faoliyati bilan shug'ullanish huquqiga ega bo'ladi.

### **1.2.3. Kasbiy faoliyatlarining turlari:**

- *ilmiy-tadqiqot;*
- *ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish;*
- *tashkiliy-boshqaruv;*
- *axborot-tahliliy faoliyat;*
- *tadbirkorlik.*

### **1.2.4. Kasbiy vazifalari.**

60410500 – Moliya va moliyaviy texnologiyalar ta'lim yo'nalishi bo'yicha Milliy malaka ramkasining 6-malaka darajasi hamda bakalavr kasbiy faoliyatlarining

sohalari, obyektlari va turlariga muvofiq bakalavriat bitiruvchisi quyidagi kasbiy vazifalarni bajarishga qodir bo'lishi lozim:

**Ilmiy-tadqiqot faoliyatida:**

kichik ilmiy xodim ilmiy-tadqiqot ishlarini amalga oshirishda iqtisodiyot va moliya organlari hamda uning tarkibiy bo'g'inlarini rivojlanish ko'rsatkichlariga baho berish, sohada amalga oshirilayotgan islohotlarning ustuvor yo'nalishlari mohiyatini tushunish hamda aniqlangan muammolar yechimini ishlab chiqish;

budjetdan moliyalashtirishni takomillashtirishga bag'ishlangan mamlakatdagi va xorijiy davlatlardagi ilm-fan yutuqlari, maxsus adabiyotlar va boshqa ilmiy axborotlarni o'rganish hamda tizimlashtirish;

tarmoqlar va sohalarda natijadorlikka asoslangan moliyalashtirish tizimini ta'minlash borasidagi muammoli mavzular bo'yicha iqtisodiy axborotlarni yig'ish, qayta ishlash, tahlil qilish va tizimlashtirish ishlarini amalga oshirish;

internet tarmog'ida eng yangi ilmiy yutuqlar haqidagi ma'lumotlarni maqsadga yo'nalgan holda qidirish, topish va o'zlashtirish;

ilmiy tadqiqot ishlanmalarini tayyorlash, soha adabiyotlari ekspertizasini amalga oshirishda qatnashish;

ta'limning innovatsion usullarini qo'llagan holda ixtisoslikka oid fanlardan o'quv-uslubiy ta'minotni ishlab chiqishda qatnashish;

tadqiqot natijalari va ishlanmalarni amaliyotga tatbiq etish.

**Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish faoliyatida:**

moliyani boshqarish strategiyasini bilish va amaliyotda qo'llay olish;

moliyaviy faoliyatga doir muammolarni aniqlash va yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

budjet mablag'laridan foydalanish samaradorligini oshirish uchun amalga oshiriladigan chora-tadbirlarni tashkil etish va tayyorlash, budjet hisobini yuritish va hisobotini tuzish;

moliyaviy texnologiyalar, moliya bozori, kredit tashkilotlari, budjet-soliq sohasida qo'llaniladigan turli tartib, usullar, standartlarni ishlab chiqishda qatnashish;

moliya bozorida moliyaviy texnologiyalar asosida operatsiyalarni muvaffaqiyatli tashkil etish;

moliyaviy texnologiyalar sohasida moliyaviy qarorlar qabul qilishda strategik moliyaviy tahlil metodlarini qo'llay olish;

moliyaviy texnologiyalar yordamida xalqaro operatsiyalarni muvaffaqiyatli tashkil etish va amalga oshirish;

davlat hokimiyati organlarida moliyaviy texnologiyalarni rivojlantirish bo'yicha hujjatlarni ishlab chiqishda ishtirok etish, qabul qilingan hujjatlar ijrosini ta'minlash;

davlat va korporativ tuzilmalarning moliyaviy faoliyati va u bilan bog‘liq bo‘lgan O‘zbekiston Respublikasining normativ-huquqiy hujjatlarini bilish va ulardan o‘z faoliyatida foydalana olish;

budjetni yagona hisob orqali boshqarishni, budjet taqchilligini moliyalashtirish manbalarini, budjet daromadlari va xarajatlari ijrosini tashkil etish bo‘yicha moliya organlarida ish yuritish;

korporativ moliyaviy strategiyani ishlab chiqish, baholash usullarini bilish va qo‘llash;

moliya bozorida moliyaviy texnologiyalar qo‘llanilishi;

raqamli moliya xizmatlarini tashkil etish va ko‘rsata olish;

elektron to‘lov tizimlaridan foydalana olish va xizmat ko‘rsatish;

elektron pul o‘tkazmalari tizimidan foydalana olish va xizmatlar ko‘rsatish;

fond birjasi va birjadan tashqari bozorlarda elektron savdo tizimlari orqali qimmatli qog‘ozlar savdolarida ishtirok eta olish va savdolarni amalga oshirish;

elektron savdo tizimlarida savdolarni yo‘lga qo‘ya olish;

depozitariylarda elektron xizmatlarini ko‘rsata olish;

elektron investitsion vositachilik xizmatlarini ko‘rsata olish;

valyuta birjasida elektron tarzda valyuta savdolarini amalga oshira olish;

tovar-xom ashyo birjasida onlayn xaridlar va sotuvlarni amalga oshira olish va savdolar bo‘yicha xizmatlar ko‘rsata olish;

tijorat banklarida moliyaviy operatsiyalar bo‘yicha onlayn xizmatlardan foydalana olish va xizmatlar ko‘rsatish;

aksiyadorlik jamiyatlarida moliya institutlari bilan moliyaviy texnologiyalar vositasida munosabatlar o‘rnata olish;

davlat xaridlari samaradorligini oshirish yo‘llarini ishlab chiqish;

### **Tashkiliy-boshqaruv faoliyatida:**

davlat va korporativ tuzilmalar faoliyatida moliyaviy boshqaruvning tartib va tamoyillarini bilish;

qonunchilikka muvofiq moliya tizimiga doir boshqaruv tamoyillarini bilish;

davlat va korporativ tuzilmalarda moliyaviy faoliyatni tashkil qilish va samarali boshqarish;

moliya va moliyaviy texnologiyalar sohasidagi mavjud ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish vositalaridan samarali foydalanish, ularning ko‘rsatkichlarini baholash va oshirish choralarini ko‘rish;

moliya va moliyaviy texnologiyalar sohasida ishlab chiqarish va xizmat ko‘rsatish jarayonlarini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan moliyaviy jarayonlar va moliyaviy resurslarni rejalashtirish;

kasbiy muammolarning yechimlarini amaliyotga tatbiq etish;

birlamchi ishlab chiqarish va xizmat ko’rsatish jarayonlarida moliyaviy faoliyatni tashkil qilish hamda uni boshqarish;

moliyaviy faoliyat bo’yicha ish rejasini tuzish va uni bajarish, nazorat qilish va amalga oshirgan ish natijalarini baholash.

**Axborot-tahliliy faoliyatida:**

zamonaviy axborot texnologiyalardan boshqaruvda foydalanish, ishlab chiqarish jarayonlari monitoringi va sifatini baholash usullari hamda mexanizmlarini ishlab chiqish;

ishlab chiqarish va boshqaruv qarorlarini qabul qilish uchun tashkilotning tashqi va ichki muhiti omillari to’g’risidagi ma’lumotlarni to’plash, qayta ishlash va tahlil qilish;

qaror qabul qilish, faoliyatni rejalashtirish va boshqarish uchun ma’lumot to’plash, tashkilotning ichki axborot tizimini yaratish va uning ishlashini boshqarish;

tashkilotning ichki hujjat aylanishi tizimini ishlab chiqish va boshqarish, tashkilotlar faoliyatining turli ko’rsatkichlari bo’yicha ma’lumotlar bazasini yuritish;

loyihalar samaradorligini baholash;

mulkchilik shaklidan qat’i nazar korxonalar faoliyatini xalqaro amaliyot mezonlari, me’yorlari va talablari asosida tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo’yicha korxonalar ko’rsatkichlari o’zgarish tendensiyalari va dinamikasini tahlil qilish;

tarmoqlar va sohalar bo’yicha korxonalar moliyaviy va statistik hisobotlarini tuzish hamda ularni sharhlash;

tahliliy masalalarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalari va texnik vositalardan foydalanish;

axborot-tahlil faoliyati natijalari bo’yicha hisobot tayyorlash.

**Tadbirkorlik faoliyatida:**

yangi biznes-loyihalarni shakllantirish va amalga oshirish;

biznesni tashkil etish, biznes-rejalarni ishlab chiqish va amalga oshirish;

o’z biznesini yaratish qobiliyatiga ega bo’lishi lozim.

**2. Kasbiy kompetensiyalariga qo’yiladigan talablar.**

Davlat siyosatining dolzarb masalalarini bilish, ijtimoiy-iqtisodiy muammolar va jarayonlarni mustaqil tahlil qila olish;

xorijiy tillardan kamida birida kasbiy faoliyatga oid hujjatlar va ishlar mohiyatini tushunish, iqtisodiy-gumanitar ilmiy fanlar bo’yicha kasbiy faoliyat doirasida zaruriy bilimlarga ega bo’lish hamda ulardan zamonaviy kasb faoliyatida foydalana bilish;

axborot texnologiyalarini kasbiy faoliyatida qo’llay bilish, axborotlarni yig’ish, saqlash, qayta ishlash va ulardan foydalanish usullarini egallagan bo’lish, o’z faoliyatida mustaqil asoslangan qarorlar qabul qila olish;



matematikaning chiziqli algebra, matematik analiz, differensial va integral hisob hamda differensial va chekli ayirmali tenglamalar yordamida ijtimoiy-iqtisodiy sohada qo'llanilayotgan modellarni tizimli o'rganishni tahlil qilish va baholash;

ixtisoslik fanlari bo'yicha yangi bilimlarni mustaqil egallay bilish, o'z ustida ishlash va mehnat faoliyatini ilmiy asosda tashkil qila olish;

iqtisodiy kategoriya va qonunlar, iqtisodiy jarayon va hodisalar mohiyatini tushunish, iqtisodiyotni bozor tamoyillari asosida isloh qilish mexanizmlarini bilish;

makroiqtisodiy ko'rsatkichlar, ularni hisoblash orqali pul-kredit, budjet-soliq va tashqi iqtisodiy siyosatni amalga oshirish yuzasidan ko'nikmalarini shakllantirish;

moliyaning mazmun-mohiyati, moliyaviy munosabatlarni samarali tashkil etishning nazariy-amaliy jihatlarini va ularni boshqarish usullarini bilish;

budjetdan moliyalashtirish asoslarini bilish, funksiya, usul va tamoyillarini chuqur o'rganish, moliyaviy qarorlarni qabul qilish va ular ijrosi nazoratini olib borish;

iqtisodiy obyektlar va jarayonlarning miqdoriy o'zaro bog'liqligini matematik va statistik metodlar hamda modellar yordamida o'rganish;

moliyaviy jarayonlarni modellashtirish, moliyaviy va ijtimoiy sharoitlarini baholash, yangi bozor imkoniyatlarini aniqlash va yangi moliyaviy modellarni shakllantirishni bilish;

iqtisodiyot subyektlarining moliyaviy holatini tahlil qilish hamda moliyaviy ko'rsatkichlarini aniqlash;

moliyaviy risklarning mazmun-mohiyati, turlari, moliyaviy risklarni boshqarish, moliyaviy risklarni baholash bo'yicha moliyaviy subyektlari faoliyatining nazariy va amaliy jihatlarini bilish;

uy xo'jaligining muhim moliyaviy qarorlari haqidagi tushunchaga ega bo'lish, tegishli nazariy tushunchalar bilan tanishish, haqiqiy hisob-kitoblar qanday amalga oshirilishini o'rganish va keyin bu individual qarorlar jamiyat uchun qanchalik muhimligini muhokama qilish ko'nikmalariga ega bo'lishi;

davlat xaridlari tizimini tadrijiy rivojlanishi, xaridlarni amalga oshirish tartib-taomillari, xaridlarni amalga oshirish shakllari va davlat xaridlarini tashkil etish mexanizmlarini bilish;

moliya bozorida moliyaviy texnologiyalar qo'llanilishining nazariy, amaliy asoslarini bilish, resurslarni jalb qilish va ularni joylashtirish, raqamli moliyaviy texnologiyalar xizmatlarini joriy eta olish va ko'rsata olish;

investitsiyalar nazariyasi, investitsiya qarorlari qabul qilish, investitsion maqsad va strategiyalarni shakllantirish, investitsiya muhiti va investitsion konseptual boshqaruv istiqbollari ishlab chiqish bo'yicha bilimlarni bilish;

moliyaviy tizim ishtirokchilari, jumladan moliyaviy bozorlar va institutlarni real iqtisodiyot bilan o'zaro aloqalari, ularning iqtisodiy o'sishni rag'batlantirish, shuningdek, moliyaviy inqirozlarni bartaraf etishdagi rolini bilish;

xalqaro moliya munosabatlari, spot va forvard ayirboshlash kurslari, umumiy valyuta tizimlarining ishlashi, xalqaro moliya institutlari, biznesni boshqarishning xalqaro tajribalariga oid bilimlarga ega bo'lish;

moliyaviy va boshqaruv hisobi bo'yicha ma'lumotlarni tahlil qilish, moliyaviy qarorlar qabul qilish, moliyaviy faoliyatni nazorat qilish va korporativ samaradorlikni boshqarish bilan bog'liq holda korxonalar va tashkilotlarda buxgalteriya hisobini yuritish ko'nikmalariga ega bo'lish;

korporativ moliyaning asosiy qonuniyatlari, korporativ moliyaviy siyosat, moliyaviy qarorlarni tanqidiy baholash, kapital tuzilishi, korporativ soliqlar va boshqa majburiy to'lovlar, bankrotlik va firmaning moliyaviy qarorlariga assimetrik ma'lumotlarning ta'sirini aniqlash bo'yicha amaliy va nazariy bilimlarni bilish;

elektron to'lov tizimlaridan foydalanish va xizmat ko'rsatish, elektron pul o'tkazmalari tizimidan foydalanish va xizmatlar ko'rsatish, fond birjasi va birjadan tashqari bozorlarda elektron savdo tizimlari orqali qimmatli qog'ozlar savdolarida ishtirok etish va savdolarini amalga oshirish, elektron savdo tizimlarida savdolarini yo'lga qo'yish, depozitariylarda elektron xizmatlarni ko'rsatish, elektron investitsion vositachilik xizmatlarini ko'rsatish, valyuta birjasida elektron tarzda valyuta savdolarini amalga oshirish, tovar-xom ashyo birjasida onlayn xaridlar va sotuvlarni amalga oshirishning nazariy va amaliy jihatlarini bilish;

moliya sohasiga oid me'yoriy-huquqiy hujjatlarni izlash, tahlil qilish va ulardan kasbiy faoliyatda foydalanish ko'nikmalariga ega bo'lish.

### **3. Amaliyotlarga qo'yiladigan talablar.**

Malakaviy amaliyot – umumkasbiy va ixtisoslik fanlaridan nazariy bilimlarni mustahkamlash va amaliy (ishlab chiqarish) jarayonlari bilan uyg'unlashtirish, tegishli amaliy ko'nikmalar, kompetensiyalar va malakalarni shakllantirishga qaratiladi.

Ta'lim yo'nalishi bo'yicha quyidagi amaliyotlar o'tkaziladi:

1. Tanishuv amaliyoti.
2. Ishlab chiqarish amaliyoti.
3. Bitiruv oldi amaliyoti.

#### 4. Fanlar katalogining tuzilishi:

T/r	Fanning malakaviy kodi	O’quv fanlari, bloklar va faoliyat turlari	Umumiy yuklamaning hajmi, soatlarda	Kredit miqdori	Semestri
<b>1.00</b>	<b>Majburiy fanlar</b>				
1.01	O’EYT1104	O’zbekistonning eng yangi tarixi	120	4	1
1.02	AKKK1104	Akademik ko’nikmalar va kasbiy kompetentlik	150	5	1
1.03	IAKTT1105	Iqtisodiyotda axborot kommunikatsion texnologiyalar va tizimlar	150	5	1
1.04	AMAT11210	Amaliy matematika 1,2	300	10	1,2
1.05	IQN11210	Iqtisodiyot nazariyasi 1,2	300	10	1,2
1.06	XT1106	Xorijiy til 1 (ingliz, fransuz, nemis, yapon, koreys, xitoy)	180	6	1
1.07	XT1204	Xorijiy til 2 (ingliz, fransuz, nemis, yapon, koreys, xitoy)	120	4	2
1.08	DIN1204	Dinshunoslik	120	4	2
1.09	O’RT1204	O’zbek (rus) tili	120	4	2
1.10	JMS1204	Jismoniy madaniyat va sport	120	4	2
1.11	FAL1205	Falsafa	120	4	2
1.12	STAT1305	Statistika	150	5	3
1.13	MAK1305	Makroiqtisodiyot	150	5	3
1.14	BH1305	Buxgalteriya hisobi	150	5	3
1.15	MTI1305	Moliyaviy tizimlar va inqirozlar	150	5	3
1.16	MA13410	Moliya asoslari 1,2	300	10	3,4
1.17	PM1405	Personal moliya	150	5	4
1.18	EKMET1405	Ekonometrika	150	5	4
1.19	INV1405	Investitsiyalar	150	5	4
1.20	PNMB1405	Portfel nazariyasi va moliyaviy bozorlar	150	5	4
1.21	KM1505	Korporativ moliya	150	5	5
1.22	SST1505	Soliqlar va soliqqa tortish	150	5	5
1.23	XM1505	Xalqaro moliya	150	5	5
1.24	DM15610	Davlat moliyasi 1,2	300	10	5,6
1.25	G’B1605	G’aznachilik	150	5	6
1.26	MT1605	Moliyaviy texnologiyalar	150	5	6
1.27	MR1605	Moliyaviy risklar	150	5	6
<b>2.00</b>	<b>Tanlov fanlari</b>		<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>3-7</b>
<b>2.00</b>	Tanlov fanlari		<b>1800</b>	<b>60</b>	<b>3-7</b>
<b>Kvalifikatsiya</b>		<b>Moliyachi-iqtisodchi</b>			
		<b>Jami:</b>	<b>6300</b>	<b>210</b>	<b>1-7</b>
		Malakaviy amaliyot*	<b>900</b>	<b>30</b>	<b>8</b>
		Yakuniy davlat attestatsiyasi			<b>8</b>
		<b>Jami:</b>	<b>900</b>	<b>30</b>	
		<b>HAMMASI</b>	<b>7200</b>	<b>240</b>	

## Bibliografik ma’lumotlar

UDK: 002:651.1/7

Guruh T 55

OKS 01.040.01

---

### **Tayanch soʻzlar:**

Moliya, moliyaviy siyosat, moliya tizimi, moliyaviy boshqaruv, moliyaviy nazorat, moliyaviy hisobotlar, moliyaviy koʻrsatkichlar, moliyaviy rejalashtirish, pul oqimlarini boshqarish, moliyaviy menejment, korporativ moliya, sugʻurta, toʻlovga layoqatlilik, investitsiyalar, qimmatli qogʻozlar, lizing, xalqaro moliya, toʻlov balansi, valyuta operatsiyalari, xalqaro hisob-kitoblar tizimi, moliya bozori, uy xoʻjaliklari moliyasi, gʻaznachilik, moliyaviy majburiyatlar, moliyaviy risklar, moliyaviy risklarni boshqarish, davlat moliyasi, xarajatlar smetasi, budjetdan moliyalashtirish, ijtimoiy taʼminot, davlat budjeti, budjet daromadlari, budjet xarajatlari, budjet jarayoni, budjet tizimi, budjetlararo munosabatlar, budjet taqchilligi, budjet profitsiti, budjetdan tashqari davlat maqsadli jamgʻarmalari, soliqlar, davlat krediti, davlat qarzlari, davlat xaridlari, budjet buyurtmachilari, korporativ buyurtmachilar, elektron doʻkon, elektron tijorat, elektron auksion, tanlov va tender savdolari, raqamli moliya, raqamli sugʻurta, yashil moliya, yashil moliyalashtirish.

Ishlab chiquvchilar, kelishilgan asosiy turdosh oliy ta’lim muassasalari hamda kadrlar iste’molchilari

ISHLAB CHIQLIGAN:

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti

Rektor T.Z. Teshabayev

2024-yil “14” 06

M.O.



KELISHILDI:

O‘zbekiston Respublikasi  
Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi  
huzuridagi Oliy ta’limni rivojlantirish  
tadqiqotlari markazi

Direktor M.R. Boltabayev

2024-yil “25” 06

M.O.



O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va  
moliya vazirligi huzuridagi G‘aznachilik  
xizmati qo‘mitasi

Rais M.B. Atadjanov

2024-yil “21” 06

M.O.



Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy  
universiteti

Rektor I.U. Majidov

2024-yil “20” 06

M.O.



O‘zbekiston Respublikasi Bank-moliya  
akademiyasi

Rektor E.A. Xoshimov

2024-yil “19” 06

M.O.



"ALSKOM SUG‘URTA KOMPANIYASI"  
aksiyadorlik jamiyati

Bosh direktor T.G‘. Ilyosov

2024-yil “19” 06

M.O.

